VOL. 1 NO. 5 (2025)

JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

https://bestjournalup.com/index.php/jisn/issue/archive

JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

JISN

Vol. 1 No. 5 (2025): Journal of International science networks
Journal of Contemporary World Studies: ISSN: 3030-3311

PUL MABLAG‘LARI HARAKATI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT

Safarov Otabek Abdulla o‘g‘li

International School of' finance technology And science instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: otabek1272@gmail.com



Accepted Date:
May 05, 2025,
Published Date:
May 10, 2025

Journal Website:
https://bestjournalup.com/index.php/jisn/issue/view/jisn5

License

This work is licensed under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.

ANNOTATION:

Ushbu maqolada moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar korxona pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini qanday qilib keltirib chiqarishi va foydalanishiga qiziqish bildirishadi. Bunday qiziqish, korxona faoliyatining xususiyatidan qat’iy nazar, hamda pulmablag‘lari korxona faoliyatining mahsuloti bo‘lib, masalan moliyaviy institutlar misolida, xizmat qilishiga qaramasdan mavjud bo‘ladi. Korxonaning daromad keltiruvchi faoliyati turlari qanchalik farqli bo‘lmasin, ularning pul mablag‘laridagi ehtiyojlari asosan bir xil sabablardan kelib chiqadi.

KEYWORDS:

pul mablag‘lari, pul ekvivalentlari, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, to‘g‘ridan-to‘g‘ri usul, operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyat, moliyaviy hisobot, mijozlardan tushumlar, tovar va xizmatlar.

Kirish

Ushbu Standartning maqsadi, korxonaning pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlaridagi sodir bo‘lgan o‘zgarishlar haqidagi axborotni, davr mobaynidagi pul oqimlarini operatsion, investitsion vamoliyaviy faoliyatlarga tasniflaydigan pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot ko‘rinishida, taqdim etishnitalab qilishdan iborat. Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar korxona pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini qanday qilib keltirib chiqarishi va foydalanishiga qiziqish bildirishadi. Bunday qiziqish, korxona faoliyatining xususiyatidan qat’iy nazar, hamda pulmablag‘lari korxona faoliyatining mahsuloti bo‘lib, masalan moliyaviy institutlar misolida, xizmat qilishiga qaramasdan mavjud bo‘ladi. Korxonaning daromad keltiruvchi faoliyati turlari qanchalik farqli bo‘lmasin, ularning pul mablag‘laridagi ehtiyojlari asosan bir xil sabablardan kelib chiqadi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga korxonaning sof aktivlaridagi o‘zgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va to‘lov qobiliyati)ni va o‘zgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida o‘zining pul oqimlari summasi va muddatlariga ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatini baholash uchun ma’lumot bilan ta’minlaydi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar korxonaning pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish imkoniyatlarini baholashda foydalidir, hamda foydalanuvchilarga har xil korxonalarga tegishli kelgusi pul oqimlarining keltirilgan (diskontlangan) qiymatini baholash va solishtirish modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. U, shuningdek, turli xil korxonalarning operatsion faoliyati ko‘rsatkichlari haqidagi hisobotlarining qiyoslanuvchanligini oshiradi, chunki u bir xil operatsiya va hodisalarning turlicha hisobga olinishi oqibatlarini bartaraf kiladi.

Oldingi davrlardagi pul oqimlari to‘g‘risidagi axborotdan ko‘pincha kelgusi pul oqimlariningsummasi, muddati va aniqligining ko‘rsatkichi sifatida foydalaniladi. U, shuningdek, kelgusipul oqimlari bo‘yicha oldingi baholarning to‘g‘riligini tekshirishda, hamda foydalilik va sof puloqimlari orasidagi bog‘liqlikni va o‘zgaruvchan narxlarning ta’sirini o‘rganishda foydalidir.

Qo‘llash doirasi

Korxona pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni mazkur Standartning talablariga mos ravishda tayyorlab, moliyaviy hisobotlar taqdim etiladigan har bir davrda moliyaviy hisobotlarning ajralmas qismi sifatida takdim etishi shart.

Pul mablaglari (Cash) - nakd pul va talab qilib olguncha depozitlarni o‘z ichiga oladi.

Bank kreditlari odatda moliyaviy faoliyatga tegishli deb hisoblanadi. Ammo, ayrim davlatlarda, talab qilinganda to‘lanadigan bank overdraftlari korxonaning pul mablag‘lariniboshqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu hollarda, bank overdraftlari pulmablag‘lari va ularning ekvivalentlari tarkibiga kiritiladi. Bunday bank xizmatlarininghususiyati bankdagi hisobvaraq qoldig‘ining overdraftga tez-tez o‘zgarib turishidir.

Pul mablag‘larining ekvivalentlari (Cash equivalents)- belgilangan summadagi pul mablag‘lariga oson aylantiriladigan va qiymatining o‘zgarishi jihatidan sezilarsiz darajadagi riskka ega bo‘lgan, qisqa muddatli va yuqori likvidli investitsiyalardir.

Pul mablag‘larining ekvivalentlari investitsiya yoki boshqa maqsadlar uchun emas, balki qisqamuddatli majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish maqsadida ushlab turiladi. Investitsiyani pul ekvivalenti deb hisoblash uchun, u belgilangan summadagi pul mablag‘iga oson aylantiriladigan va qiymatidagi o‘zgarishlar riski sezilarsiz darajada bo‘lishi lozim. Shu sababli, investitsiya odatda uning so‘ndirish muddati qisqa bo‘lsagina, ya’ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy yoki undan

kam muddat ichida to‘lanadigan bo‘lsa, pulmablag‘larining ekvivalenti deb hisoblanishi mumkin.

Pul oqimlari (Cash flows) - pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining kirimi va chiqimi. Pul oqimlari harakati pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari tashkil topgan moddalari o‘rtasidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga olmaydi, chunki ular korxonaning operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyatiga kirmaydi, va pul mablag‘larini boshqarishning bir qismi bo‘lib xizmat qiladi. Oshiqcha pul mablag‘larini ularning ekvivalentlariga investitsiya qilish pul mablag‘larini boshqarish bo‘lib hisoblanadi.

Moliyaviy faoliyat (Financing activities)- korxonaning qo‘yilgan kapitali mablag‘larining mikdori va tarkibidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaruvchi faoliyat.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etish va qarz

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot davr davomidagi pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar bo‘yicha tasniflangan holda ko‘rsatishi kerak.

- Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot (Statement of Cash Flows)
- MXXS bo‘yicha moliyaviy hisob
- Operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari oqimi:
- Operatsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari oqimi:
- Investitsion faoliyatdan pul mablag‘lari oqimi:
- Investitsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari oqimi
- Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘lari oqimi:
- Moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari oqimi
- Pul mablag‘lari va ekvivalentlarining sof ko‘payishi (kamayishi) Pul mablag‘lari va ekvivalentlari uchun valyuta kurslari o‘zgarishining ta’siri

Davr boshiga pul mablag‘lari va ekvivalentlari Davr oxiriga pul mablag‘lari va ekvivalentlari.

Korxona o‘zining operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati bo‘yicha pul oqimlarini o‘zining faoliyatiga xos ravishda ko‘rsatadi. Faoliyat turi bo‘yicha tasniflash foydalanuvchilarga ushbu faoliyatlarning korxona moliyaviy holatiga ta’sirini baholash va uning pul mablag‘lari va ekvivalentlarining summasini aniqlash imkonini beruvchi axborotni ta’minlaydi. Bu axborotdan, shuningdek, ushbu faoliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani baholash uchun foydalanish mumkin.

Aynan bir operatsiya bo‘yicha har xil tasniflanadigan pul oqimlari yuzaga kelishi mumkin. Masalan, qarz bo‘yicha to‘lovlar asosiy summa va foizlardan tashkil topsa, foiz elementi operatsion faoliyat bo‘lib, asosiy summa elementi esa moliyaviy faoliyat bo‘lib tasniflanishi mumkin.

Operatsion faoliyat manbalariga tashki korxona, Operatsion faoliyat natijasida kelib chiqadigan pul oqimlarining summasi murojaat moliyalashtirishning qilmasdan, O‘z operatsion faoliyatidanyuzaga kelgan qarzlarini to‘lash, o‘zining operatsion faoliyatini amalga oshirish qobiliyatinisaqlash, dividendlarni to‘lash va yangi investitsiyalar qilish uchun yetarli bo‘lgan pul oqimlariniqay darajada hosil qilganligini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichdir. Operatsion faoliyatdanoldingi davrlarda kelib chiqqan pul oqimlarining alohida tarkibiy qismlari to‘g‘risidagima’lumot, boshqa ma’lumotlar bilan birgalikda operatsion faoliyat bo‘yicha hosil bo‘ladigankelgusi pul oqimlarini prognoz qilishda foydalidir.

Korxona moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan yalpi pul tushumlari va yalpi pul to‘lovlarining asosiy toifalarini hisobotda alohida ko‘rsatishi kerak (bundan, hisobotda sof (netto) asosda aks ettiriladigan pul oqimlari mustasno).

Xorijiy valyutadagi pul mabdag‘lari harakati

Xorijiy valyutadagi operatsiyalar natijasida kelib chiqadigan pul oqimlari, ushbu pul oqimi sanasidagi korxonaning

funktsional valyutasini xorijiy valyutaga ayirboshlash kursini xorijiy valyuta summasiga koʻpaytirish orqali korxonaning funktsional

valyutasida aks ettirilishi lozim.

Xorijiy shu'ba korxonaning pul oqimlari, uning ushbu pul oqimlarisanasidagi funktsional valyutasini xorijiy valyutaga ayirboshlash kursi boʻyichafunktsional valyutasiga oʻtkazilishi (qayta hisoblanishi) lozim.

Xorijiy valyutani ayirboshlash kurslaridagi oʻzgarishlar natijasida paydo boʻladigan oʻzlashtirilmagan foyda va zararlar pul oqimlari boʻlib hisoblanmaydi. Biroq, xorijiy valyutada boʻlgan yoki xorijiy valyutada olinishi kutilayotgan pul mablagʻlari va ularning ekvivalentlariga valyuta kurslaridagi oʻzgarishlarning ta'siri, pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobotda, davr boshiga hamda davr oxiriga boʻlgan ushbu pul mablagʻlari va ularning ekvivalentlarini solishtirish maqsadida aks ettiriladi. Bu summa operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar boʻyicha pul oqimlaridan alohida koʻrsatiladi, va ushbu pul oqimlarini davr oxiridagi ayirboshlash kursi boʻyicha hisoblaganda hosil boʻladigan har qanday farqlarni, agar bunday farqlar boʻlsa, oʻz ichiga oladi.

Foizlar va dividendlar

Olingan va toʻlangan foizlar va dividendlar koʻrinishidagi pul oqimlarining har biri alohida aks ettirilishi lozim. Ularning har biri davrdan davrga izchil ravishda operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyatga tegishli pul okimi sifatida tasniflanishi lozim.

Davr davomida toʻlangan foizlarning umumiy summasi, u foyda yoki zarar toʻgʻrisidagi hisobotda xarajat sifatida tan olinishi yoki BXXS 23 "Qarzlar boʻyicha xarajatlar"ga mos ravishda kapitallashtirilishidan qat'iy nazar, pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobotda koʻrsatilishi lozim.

Toʻlangan foizlar hamda olingan foiz va dividendlar moliyaviy institutlar uchun, odatda, operatsion faoliyatning pul oqimlari sifatida tasniflanadi. Biroq, boshqa korxonalarga nisbatan bunday pul oqimlarini tasniflashda kontsensus (yagona kelishuv) mavjud emas. Toʻlanganfoizlar hamda olingan foiz va dividendlar operatsion faoliyatning pul sifatida tasniflanishimumkin, Chunki ular foyda yoki zararni shakllantirishda ishtirok etadi. Binobarin, toʻlanganfoizlar hamda olingan foiz va dividendlar, mos ravishda, moliyaviy faoliyatning pul oqimlari hamdainvestitsion faoliyatning pul oqimlari sifatida tasniflanishi mumkin, chunki ular moliyaviy resurslarnijalb etish boʻyicha xarajatlardir yoki investitsiyalar boʻyicha daromadlardir.

Toʻlangan dividendlar moliyaviy faoliyatning pul oqimlari sifatida tasniflanishi mumkin, chunki ular moliyaviy resurslarni jalb etish boʻyicha xarajatlardir. Binobarin, foydalanuvchilarga korxonaning operatsion pul oqimlaridan dividendlarni toʻla bilishi qobiliyatini aniqlashda yordam berish uchun toʻlangan dividendlar operatsion faoliyat natijasidagi pul oqimlarining bir qismi boʻlib tasniflanishi mumkin.

Foyda soliqlari

Foyda soliqlari natijasida kelib chiqadigan pul oqimlari alohida koʻrsatilishi va operatsion faoliyat natijasidagi pul oqimlari sifatida tasniflanishi lozim, agar ular moliyaviy va investitsion faoliyatlariga maxsus bogʻliq boʻlmasa.

Foyda soliqlari, pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobotda operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanishi mumkin boʻlgan pul oqimlarini keltirib chiqaruvchi operatsiyalar natijasida yuzaga keladi. Soliq xarajatini investitsion yoki moliyaviy faoliyat bilan bogʻliqligini osonlikcha aniqlab boʻladigan boʻlsa-da, tegishli soliq pul oqimlari qaysi faoliyatga taaluqligini aniqlashning koʻpincha imkoni yoʻq, hamda ularga asos boʻladigan operatsiyalardan olinadigan pul oqimlari davridan farqli davrda kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun, toʻlangan soliqlar odatda operatsion faoliyat natijasidagi pul oqimlari

sifatida tasniflanadi. Biroq, agar soliq pul oqimini investitsion yoki moliyaviy faoliyat sifatida tasniflangan pul oqimlarini keltirib chiqargan alohida operatsiya bilan bog‘liqligini aniqlash imkoni bo‘lsa, soliq pul oqimi ham, mos ravishda, investitsion yoki moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanadi. Agar solik pul oqimlari bitta turdan ortiq faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, to‘langan soliqlarning umumiy summasi ochib beriladi.

Pul mablag‘larini boshqarish amaliyoti va bank mexanizmlarining dunyo bo‘ylab farq qilishini hisobga olgan holda va BHXS 1 "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish”ga rioya qilish maqsadida, korxona pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari tarkibini belgilashda qo‘llaydigan siyosatini ochib berishi lozim.

Ochib beriladigan boshqa ma’lumotlar

Korxona rahbariyat izohlari bilan birgalikda, korxonada mavjud bo‘lgan, ammo foydalanish imkoni bo‘lmagan katta miqdordagi pulmablag‘lari va pul ekvivalentlari summasini ochib berishi lozim.

1-jadval

«Alfa» korxonasining moliyaviy holati to‘g‘risidagi hisoboti (sh.b.da)

	Yil boshiga	Yil oxiriga
AKTIVLAR:		
Uzoq muddatli aktivlar:		
Asosiy vositalar (balans qiymati)		
Qisqa muddatli aktivlar:		
Zahiralar	110 000	144 000
Tovarlar va xizmatlar uchun berilgan avanslar	5 000	1 000
Xaridorlardan olinadigan schyotlar	55 000	47 000
Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	127 000	115 000
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	15 000	47 000
Jami qisqa muddatli aktivlar	312 000	354 000
Jamiaktivlar	**749 000**	**976 000**
XUSUSIY KAPITAL VA MAJBURIYaTLAR:		
Xususiy kapital:		
Ustav kapitali (oddiy aktsiyalar, nominal 1 sh.b.)	200 000	270 000
Qo‘shilgan kapital	115 000	195 000
Taqsimlanmagan foyda	112 000	120 000
Asosiy vositalarni qayta baholash rezervi	17 000	25 500
Jami xususiy kapital	**444 000**	**610 500**
Majburiyatlar:		
Uzoq muddatli majburiyatlar:		
Uzoq muddatli bank kreditlari	244 000	294 000
Kechiktirilgan soliq majburiyati	3 000	4 500
Jami uzoq muddatli majburiyatlar	**247 000**	**294 000**
Qisqa muddatli majburiyatlar:		
Yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schyotlar	43 000	50 000
Mehnatga xaq to‘lash bo‘yicha majburiyatlar	9 000	12 000
Hisoblangan foizlar	1 000	2 000
To‘lanadigan joriy foyda solig‘i	5 000	3 000

Standart boshqa ayrim qoidalarni ham o‘z ichiga olgan.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzishga oid misol

Quyida «Alfa» korxonasining yil uchun moliyaviy holati to‘g‘risidagi hisoboti (yil boshiga va oxiriga), foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisoboti, kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisoboti va qo‘shimcha ma’lumotlari berilgan.

XULOSA.

Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot moliyaviy holat va pul oqimlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu hisobot orqali kompaniya yoki tashkilotning pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalari, daromadlar, xarajatlar va investitsiyalar haqida batafsil ma'lumot olish mumkin. Pul mablag‘lari harakati ikki asosiy bo‘limdan iborat bo‘ladi.

Operatsion faoliyatdan olingan pul mablag‘lari – Kompaniyaning kundalik faoliyatidan kelib chiqadigan pul oqimlari (masalan, savdo daromadlari, to‘lovlar).

Investitsion faoliyatdan olingan pul mablag‘lari – Aktivlarni sotish yoki xarid qilishdan kelib chiqqan pul oqimlari.

Moliya faoliyatidan olingan pul mablag‘lari – Qarzdorlik va kapitalning o‘zgarishidan kelib chiqqan oqimlar (masalan, qarz olish, dividend to‘lash).

Hisobotni tahlil qilish natijasida tashkilotning pul oqimlari samaradorligi, uning likvidligi va moliyaviy barqarorligi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Pul mablag‘lari harakati orqali tashkilotning kelajakdagi o‘sish imkoniyatlarini baholash va muammolarni aniqlash hamda ularga tegishli yechimlar ishlab chiqish mumkin.

Pul oqimlari nazoratini kuchaytirish: Tashkilotda pul oqimlarini samarali boshqarish uchun, unga doimiy nazorat o‘rnatish zarur. Pul mablag‘lari harakatini o‘z vaqtida tahlil qilish, bo‘sh pul mablag‘larini qisqartirish va tejamkorlikni oshirish mumkin.

Qarzdorlikni kamaytirish: Tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun yuqori darajadagi qarzdan qochish va o‘z mablag‘lari asosida faoliyatni kengaytirish zarur. Bu nafaqat riskni kamaytiradi, balki organizmning likvidligini yaxshilaydi.

Investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish: Tashkilot pul mablag‘larini turli investitsion faoliyatlarda ishlatish orqali risklarni kamaytirish va daromadlarni ko‘paytirish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Samarali budjetlashtirish va xarajatlarni optimallashtirish: Xarajatlarni nazorat qilish va investitsiyalarni faqat yuqori rentabellik keltiradigan sohalarga yo‘naltirish orqali tashkilotning moliyaviy holatini yaxshilash mumkin.

Texnologik innovatsiyalarni joriy etish: Pul mablag‘lari harakatini yanada samarali nazorat qilish uchun zamonaviy dasturiy ta'minot va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, avtomatlashtirishni kengaytirish muhim.

Moliyaviy hisobotlarni yaxshilash: Moliyaviy hisobotlarni yanada shaffof va tushunarli qilish, moliyaviy axborotni ichki va tashqi auditorlar uchun aniq va ishonchli bo‘lishi uchun tahlil qilish zarur. Bu tashkilotning ishonchliligini oshiradi va investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4720-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 3.2-band. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi №54-sonli qarori.
4. Davlat ulushi bo‘lgan aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligin baholash mezonlari to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan.
5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. Hammuallif – T.: “MOLIYA”, 2010 -272 b.
6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/ 2018 y. 555 Раздаточный материал по курсу повышения квалификации: «Между-народные стандарты финансовой отчетности (МСФО). O‘zbekiston auditorlar palatasi. Tashkent-2015. 335-bet.